



O'ZGALAR MULKINI O'G'RILIK YO'LI BILAN TALON-TOROJ QILISHNING OB'JEKTIV TOMONI VA UNING O'ZIGA XOS BELGILARI

Xasanov Temur Xalmamatovich

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi Jinoyat huquqi
kefedrasi o'qituvchisi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
temur.hasanov@gmail.com
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10454247>

ARTICLE INFO

Received: 28th December 2023
Accepted: 02nd January 2024
Online: 03rd January 2024

KEY WORDS

Ayb, jinoyat, javobgarlik, jazo, o'zgarlar, mulk, talon-toroj, ob'ektiv, tomon, ijtimoiy xavfli.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zgarlar mulkini o'g'rilik yo'li bilan talon-toroj qilishning ob'ektiv tomoni va uning o'ziga xos belgilariga doir masalalar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada o'zgarlar mulkini o'g'rilik yo'li bilan talon-toroj qilishning ob'ektiv tomonining zaruriy va fakultatev belgilariga doir olimlarning fikrlarini tahlil etgan.

Bizga ma'lumki, talon-toroj jinoyatlari ob'ektiv tomoni alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jinoyat tarkibining aynan ushbu tomoniga qarab, talon-toroj jinoyatlari o'zaro farqlanadi. Ob'ektiv tomon jinoyat tarkibining bir elementi hisoblanib, u jinoyat qonunida ko'zda tutilgan ijtimoiy xavfli jinoyatlarning tashqi tomonini ta'riflaydigan xususiyatlardan tashkil topgan bo'lib, u muayyan tarzda, ma'lum bo'lgan sharoitlarda, joyda va vaqtda amalga oshiriladi. Bunda jinoyat qonuni tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi yoki ularga zarar yetkazilishi uchun real xavf tug'diriladi. Jinoiy va jinoiy jazolanadigan etib shunday harakat tan olinadiki, agarda u irodali xarakterga ega bo'lsa.

B.S.Volkov yozadiki, iroda har doim o'z ob'ektiv ifodasini maqsadga yo'naltirilgan harakatlarda topa olishi kerak, aksincha u na huquqiy na axloqiy baholanishining predmeti bo'la olmaydi¹.

Jabrlanuvchining o'g'rilikka nisbatan xarakteri shunda ifodalanadiki, mol-mulk uning xohish-irodasiga qarshi yoki undan qat'iy nazar olib qo'yiladi. Jabrlanuvchi o'z mol-mulki talon-toroj qilinayotganini anglamagan va bunga passiv qarshilik ko'rsatgan, ya'ni aybdor jabrlanuvchining xohish-irodasini e'tiborga olmagan holda mol-mulkni o'g'rilash jabrlanuvchining xohish-irodasidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

O'g'rilik harakatining mohiyati shundaki, mol-mulkni talon-toroj qilishda doim bu mol-mulk jabrlanuvchining ixtiyorida chiqarib olinadi.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni tavsifiga o'tsak, JKning 169-moddasi dispozitsiyasida o'g'rilik "o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish" deb belgilanadi. Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, o'g'rilik tarkibining ob'ektiv tomonini tavsiflab beradigan xususiyati, talon-toroj jinoyatlarini boshqa shakllardan farqlaydigan usuli hisoblanadi. O'g'rilik – bu yashirin va

¹ Волков Б.Б. Проблема воли и уголовная ответственность. – Казань, 1965. – С. 11.



shuningdek, o'zganing mulkini zo'rlik kuchi ishlatilmagan faol harakatlar bilan amalga oshirilgan talon-torojdir.

Demak, o'g'rilik ob'ektiv tomondan o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishda ifodalanadi. Yuridik adabiyotlarda o'g'rilik ob'ektiv tomoni zaruriy belgisi sifatida yashirin ravishda talon-toroj qilish yuzasidan tadqiqotchilar yakdillik bilan o'xshash fikr bildiradilar: "Talon-toroj qilishning yashirinligi deganda, jinoyat mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan yoki mulkdor yoxud mol-mulkning talon-toroj qilinishidan manfaatdor bo'lmagan boshqa shaxslar yo'q vaqtida sodir etilishi tushuniladi"².

Bu haqda, 1999 yil 30 apreldagi "O'zgalor mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli Oliy sud Plenum qarorining 1-bandida jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo'qligida yoki ular bor bo'lsada, ularga bildirmasdan o'zganing mol-mulkini yashirin talon-toroj qilish o'g'rilik hisoblanishi ko'rsatilgan. Bordi-yu jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkining olinayotganligini ko'rgan bo'lsada, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o'ylagan bo'lsa, bunday qilmishni ham o'g'rilik deb tavsiflash lozim³.

E.S.Tenchov ta'biri bilan aytganda "yashirin talon-toroj qilish deganda, mulk egasi, mulkni qo'riqlash zimmasiga yuklangan shaxs yoki talon-torojda ishtirok etmayotgan boshqa shaxslardan xufyona ravishda sodir etilgan talon-toroj tushuniladi. Fuqarolar ko'z o'ngida sodir etilgan, biroq, ular nazarida aybli harakat jinoiy xarakterga ega emas degan taassurot qoldirsa ham qilmish yashirin talon-toroj hisoblanadi (masalan, shaxs boshqa kishining cho'ntagidan hamyonini olib qo'yadi hamda atrofdagilarga jabrlanuvchini mast bo'lib qolgan qarindoshi ekanligini ta'kidlaydi)"⁴.

M.H.Rustamboev bu haqda fikr yuritib, "barcha holatlarda talon-toroj qilishni yashirin deb hisoblash uchun, o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita: ob'ektiv va sub'ektiv mezonni tahlil qilish va baholash lozim. Talon-toroj qilish usulini baholashning ob'ektiv mezoni shundan iboratki, mol-mulkni ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish atrofdagi shaxslarning ko'zi oldida sodir etilgan bo'lsa-yu, atrofdagilar buni anglamasa, bu holda qilmish o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb hisoblanishi lozim. Agar mulk egasi yoki mol-mulk ixtiyorida bo'lgan yoxud u ishonib topshirilgan shaxs talon-toroj qilish chog'ida hozir bo'lsa-yu, ammo talon-toroj sodir bo'layotganini tushunib yetmasa, shaxsning qilmishi o'g'rilik deb kvalifikatsiya qilinadi.

² Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. - Тошкент: Илм-зиё, 2006. – Б. 325-326.; Кабулов Р. Уголовно-правовые меры борьбы с хищениями: Теория и практика. Дис.доктор.юрид.наук. - Ташкент,1997. - 27 Б.; Кадыров М. Уголовное право Республики Узбекистан. – Ташкент: Адолат, 1997. - 174 Б.; Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. – Тошкент: Адолат, 1997. - 47 Б.; Уголовное право: учебник / Под ред. д.ю.н., проф. Н.И. Ветрои, д.ю.н., проф. Ю.И. Ляпунова. – 4-е изд., испр. и доп. - М.: Юриспруденция, 2007.; Уголовное право. Учебное пособие / Под ред. Проф. Л.Д. Гаухмана и проф. Б.В. Максимова.- М.: Элит, 2007.; Уголовное право России. Часть Особенная. Учебник. / Под ред. Л.Л. Кругликова. – М.: Волтерс Клувер, 2005.; Уголовное право. Особенная часть. Учебник. / Под ред. Л.Д. Гаухмана, Б.В. Максимова. – М.: Эксмо, 2005.; Российское уголовное право. Особенная часть. / Под ред. В.Б. Комисарова. – М.: Питер, 2008.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий судининг "Ўзгалор мулкни ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида"ги 1999 йил 30 апрел кундаги №6-сонли Пленум қарори. "НОРМА" электрон маълумот-қидирув базаси.

⁴ Уголовное право России. Часть Особенная. Учебник. / Под ред. Л.Л. Кругликова. – М.: Волтерс Клувер, 2005. – С. 213-214.



Jinoyatni sodir etish ob'ektiv mezonlari bahosiga asoslanib, bu yerda talon-torojlikni yashirin deb topishning bir necha usullari mavjuddir. Ulardan birinchisi, amaliyotda ko'proq uchraydigan shakli, ya'ni umuman guvohlar mavjud bo'lmaganda, masalan, qo'riqlanmayotgan tovar-moddiy qimmatliklari ulgurji bazasi omboridan kechasi yoki egasi uyda bo'lmaganda o'g'rining qulfni buzib o'g'rilashidir. Ikkinchisi, egasi yoki boshqa shaxslar bo'lsa ham, ularga bildirmasdan, yashirin ravishda mol-mulkni talon-toroj qilish, masalan, cho'ntak o'g'riliklari va hokazo. Bunday holatlarda o'g'rilik kamdan-kam holatlarda adashib mulkni oshkora talon-toroj qilish, talonchilik deb topilishi mumkin. Ob'ektiv mezonlarga asoslanib talon-toroj qilish, agar aybdor o'zganing mulkini mulk egasining bevosita o'zidan yoki uning ishtirokida, jabrlanuvchi sodir bo'layotgan jinoiy harakatlarni anglamagan holatda bo'lganida sodir etilsa ham, yashirin deb hisoblanadi. Va, nihoyat, ushbu mezonan kelib chiqib, sud-tergov amaliyotida aybdor tomonidan hammaning ko'z o'ngida mulkni qonuniy egasi sifatida olishi va boshqa shaxslar ushbu harakatlar noqonuniy xarakterga ega ekanligini anglamagani holda o'zganing mol-mulkini qasddan talon-toroj qilish yashirin ravishda deb hisoblanadi. Bunday holatlar ko'pincha, masalan, temir yo'l vagonidan tovarlar tushirilayotganda aybdor yuk tushiruvchi sifatida kelib qandaydir buyum (quti, qop)ni oladi va o'zining foydasiga egallaydi yoki aybdor vokzal yoxud aeroportda qarovsiz qolgan buyumlarni uning egasi bo'lib kelib, olib ketadi"⁵.

Bundan tashqari, o'zganing mulkini ablanuvchining harakatlarini ijtimoiy xavfli va noqonuniy deb anglay olayotgan shaxslarning ko'zi oldida o'g'rilansa, lekin ular ayblanuvchi bilan o'zaro munosabatlari o'rnatilganligi tufayli (qarindosh, do'st, tanishi), o'g'rilikka o'z befarqliligini ko'rsatishsa, bunday o'g'rilik yashirin, deb hisoblanadi.

Talon-toroj qilishni yashirin deb baholashning sub'ektiv mezoni o'g'rining jinoyatda ishtiroki bo'lmagan barcha shaxslardan yashirin holatda, ularni sodir etilgan o'zganing mulkini talon-toroj qilishdan xabari yo'q, degan ichki ishonchi hisoblanadi. Shaxsning o'zi tomonidan sodir etilayotgan talon-torojning yashirin, boshqalarga bildirmasdan sodir etilganligi to'g'risidagi sub'ektiv ishonchi jinoyatning real holatlariga mos keladigan ob'ektiv faktlarga asoslanmog'i lozim. Ular turli xil bo'lishi mumkin: jinoyat sodir etilayotgan joyda hech kimning mutlaqo mavjud emasligi, ob'ektni qo'riqlayotgan qorovulning uxlab yotishi, hech qanday vakolatlar bermagan holda ilk bora uchrashgan shaxsga vaqtincha qoldirilgan mulkni o'g'rilash va hokazo⁶.

A.P.Sevryukov haqli ravishda qayd etganidek, "qilmishning yashirinligini belgilashda uning sub'ektiv mezoni ya'ni, aybdorning o'z qilmishini yashirin sodir etayotganligini anglashi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu mezon o'g'rilikni talonchilikdan farqlashda asos bo'lib xizmat qiladi"⁷.

Shunday qilib, barcha holatlarda o'g'rilikni yashirin deb topishning hal qiluvchi ahamiyati bu holatni aybdorning o'zi tomonidan baholanishi hisoblanadi. Shuningdek, agar aybdor yashirin harakat qildim deb hisoblasa, lekin o'g'rilik fakti kim tomonidandir anglangan bo'lsa

⁵ Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. - Тошкент: Илм-зиё, 2006. – Б. 325-326.

⁶ Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. - Тошкент: Илм-зиё, 2006. – Б. 326-327.

⁷ Севрюков А.П. Хищение имущества: криминологические и уголовно-правовые аспекты. – М.: Экзамен, 2004. – Б. 68.



ham aybdor harakatlari o'g'rilik sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, transport vositasidagi kissavurlik, agar uni kimdir uzoqdan kuzatib turgan bo'lsa ham shundayligicha qolaveradi. Biroq, agar o'g'ri qilayotgan ishni kimningdir jinoiy harakat ekanligini anglab yetganini bilib qolsa, u o'z harakatlarini to'xtatib, o'g'rilik sodir etilgan joydan yashirinsa, bunda qilmish JK 169-moddasi tegishli qismi va 25-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadigan o'g'rilikka suiqasd qilish hisoblanadi. Agar aybdor xuddi shunday ob'ektiv va sub'ektiv holatlarda, mulkka daxl qilayotganligini uchinchi shaxslar bilib qolganligini sezib qolsa, biroq jinoyatning muayyan holatlaridan foydalanib uni oxirigacha yetkazsa va o'g'rilangan buyumlar bilan yashirinishga harakat qilsa, unda u o'zganing mulkini oshkora talon-toroj qilganlik uchun javobgarlikka tortiladi.

Nullas, o'g'rilikni yashirin deb tan olinishi, jinoyat sodir etilgan usulini ta'riflaydigan ob'ektiv va sub'ektiv mezonlar hisobi bilan amalga oshiriladi. Bunda, ob'ektiv mezon mulkdorning, egasning yoki boshqa shaxslarning ayblanuvchi sodir etilayotgan o'g'rilikka munosabatlarini aniqlashni anglatrsa, sub'ektiv mezonning belgilanishi – bu sodir etilayotgan o'g'rilik faktiga jinoyatchi tomonidan o'z munosabatini aniqlashidir.

O'g'rilikning tamom bo'lish vaqtini aniqlash masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu masala bevosita talon-torojning tamom bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada jinoyat huquqida talon-toroj qilishning tamom bo'lgan vaqti masalasiga doir to'rt nazariya farqlanadi.

Birinchi nazariyaga binoan, aybdor o'zganing mulkiga qonunga zid ravishda qo'l tekkizgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan hisoblanadi.

Ikkinchi nazariyaga ko'ra, talon-toroj qilish aybdor o'zganing mulkini u turgan xonadan olib chiqqan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb e'tirof etiladi.

Bizning fikrimizga ko'ra, ko'rsatib o'tilgan nazariyalar yana shuning uchun ham xatoki, talon-toroj qilish jabrlanuvchiga moddiy ziyon yetkazish tarzidagi oqibatni ham o'z ichiga oladi. Vaholanki, birinchi va ikkinchi nazariyalarda belgilangan paytlarda bunday ziyon hali yetkazilmagan bo'ladi.

Uchinchi nazariyaga binoan aybdor o'zganing mulkini qo'lga kiritgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan hisoblanadi.

To'rtinchi nazariyaga ko'ra, talon-toroj qilish aybdor o'zganing mulkini tasarruf etgan yoki undan foydalangan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan deb e'tirof etiladi.

Uchinchi va to'rtinchi nazariyalarning haqiqiyliigi masalasini hal qilishda jinoyat tamom bo'lgan vaqtni aniqlashga nisbatan u yoki bu yondashuvning qilmishni huquqiy baholashga ta'sirini hisobga olish lozim.

Umuman olganda, 1999 yil 20 apreldagi ko'ra "O'zgarlar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli Oliy sud Plenumi qarorida jinoyatchi o'zgarlar mulkini o'g'rilik bilan egallagan va undan o'z xohishicha foydalanish yoki uni ishlatish imkoniyatiga ega bo'lgan vaqtdan boshlab, o'g'rilik tugallangan hisoblanishi ko'rsatilgan. Nazarimizda, ushbu yondashuvni sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan holatlarni to'g'ri baholamoqda hamda shu ma'noda uni qo'llab-quvvatlash ma'qul.

O'g'rilangan mulkka nisbatan tasarruf etishning real imkoniyati deganda, jinoyatchiga mulkka nisbatan, mulkning qonuniy egasiga tegishli bo'lgan kompleks huquqlarni amalga



oshirishga imkoniyat beradigan ob'ektiv jihatdan mavjud munosabatlar va atrofdagi holatlar tushuniladi. Ob'ektiv jihatdan mavjud munosabatlar bu o'rinda o'zining ob'ektiv belgilari bo'yicha jinoyatchiga sezdirmasdan sodir etganligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan holatlar, ya'ni hech kimni quvmaganligi, xavotirning yo'qligi, mulkni sezdirmasdan qo'riqlanayotgan hududdan olib chiqib ketish kabilar tushuniladi.

Boshqacha aytganda, yashirin talon-toroj qilishning tugallangan vaqtini aniqlashda aybdorning sub'ektiv tasavvuri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ob'ektiv reallikdagi holatlarga asoslanib o'zida o'g'rilangan narsaga nisbatan tasarruf etish va foydalanish imkoniyati mavjud deb o'ylaydi⁸.

Tuzilishiga ko'ra o'zganing mulkini o'g'rilash jinoyati moddiy tarkibli jinoyatlar qatoriga kiradi. O'g'rilikda o'zganing mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun egallashidan tashqari, sodir qilingan harakatlar mulkdor yoki mulkning boshqa egalariga to'g'ridan-to'g'ri ziyon yetkazish oqibatlarini va aybdor harakatlari hamda yuzaga kelgan oqibatlar orasidagi sababiy bog'lanish xos bo'ladi⁹.

O'g'rilikning yakunlanishi vaqtiga qadar qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir yetkazadigan harakatlar bo'lishi mumkin. Ular ichida: a) mulkni yashirin o'g'riligi boshlangan harakatlariga boshqa ishtirokchilarini qo'shilishi; b) sub'ektning jinoyatni ohirigacha yetkazishdan ixtiyoriy voz kechishi; v) yashirin o'g'rilik mulkni ochiq talon-torojiga aylanib ketishi.

Jinoiy natija o'g'rilikning ob'ektiv zaruriy xususiyati bo'lib, mulkdor yoki boshqa mulk egalariga mulkiy zararni yetkazib qolmasdan, balki aybdor yoki uchinchi shaxsning mulkini jabrlanuvchi hisobiga noqonuniy ko'paytirishni ham ko'zda tutadi.

Aybdorning ijtimoiy xavfli harakatlari bilan yuzaga kelgan jinoiy natija o'rtasida sababiy bog'lanish zaruriy hisoblanadi, zero o'g'rilikning ob'ektiv tomonini tavsiflaydi.

Sud-tergov amaliyoti materiallari shuni tasdiqlab turibdiki, o'g'riliklar xilma-xil usullar orqali sodir etiladi. Yuridik adabiyotlarda jinoyatning usuli uning harakatini aniqlaydi, bu degani uning ob'ektiv xususiyatlarini, bir harakatning boshqalardan farqlashga xizmat qiladigan belgisini o'ziga xosligini aniqlaydi¹⁰. Kriminalistikada jinoyatni sodir etish usuli gohida alohida harakatlar kompleksi deb belgilanadi, ba'zida yagona harakatlar kompleksi yoki jinoyatning sodir etayotgan shaxsning qo'llaydigan harakatlar tizimi deyiladi.

O'g'rilik jinoyatlari ko'pincha mavjud bo'lgan yoki maxsus jinoyat sodir etishni ko'zlab, sotib olingan, ishlov berilgan asbob va vositalarning faol foydalanish yo'li bilan sodir qilinadi (3-jadval). Jinoyat huquqida jinoyat sodir etish uchun asbob va vositalar deganda, buyum, narsa, moddalar, hujjatlar, mexanizmlar, uskunalar va ular yordamida aybdor tomonidan jinoyatni sodir etish uchun foydalanilgan boshqa moddiy dunyo buyumlari tushuniladi¹¹.

O'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, o'g'rilikni sodir etgan shaxslarni 9,3% uy-joy, xona boshqa omborxonalar ichiga kirishda kalit bilan foydalanishgan. Bunda kalitlarning

⁸ Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. - Тошкент: Илм-зиё, 2006. – Б. 327-328.

⁹ Ниёзова С.С. Ўзгалар мулкни иштирокчиликда талон-тарож қилганлик учун жиноий жавобгарлик муаммолари. Юридик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – Б. 39-40.

¹⁰ Панов Н.И. Способ совершения преступления и уголовная ответственность. – Харьков, 2012. – С. 21.

¹¹ Кудрявцев В.Н. Объективная сторона преступления. М., 1968. Б.75.



bir qismi aybdorlar tomonidan uy egalari “berkitgan” joylardan topib olingan, boshqalar esa sotib olingan yoki tayyorlab olingan, bular ichida maxsus ustaxonalarda foylaniladigan “slepka” shakllar yordamida tayyorlanganlar ham bo’lgan. Qariyb jinoyatlarning yarmida, ya’ni 44% holatda o’g’rilikni sodir etayotganda ochqichlar bilan foydalanilgan, bu esa, o’z navbatida aybdor shaxs professionalligi va yuqori ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi. Maishiy xizmat buyumlari (pichoq, qaychi va hokazolar) 15%da aniqlangan, tasodifiy buyumlar esa (tayoq, tosh va hok.) – 6%da. Ulardan ko’pincha qimmatliklar saqlanadigan joylarga kirish uchun foydalanilgan yoki ular yordamida o’g’rilik sodir etilgan.

Og’irlashtiruvchi tarkibli (JKning 169-moddasi 2-qismi “g” bandi) – jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo’l yukidagi ashyoga nisbatan (kissavurlik), 10% holatda tig’ (lezvie) yordamida foydalanilgan, bunda qimmatliklarni chiqarib olish uchun ayblanuvchi kiyim, sumki yoki boshqa qo’lda ko’tarib yuradigan buyumlarni kesib olgan. O’g’rilikni sodir etishda boshqa asboblardan foydalanganlik o’rganib chiqilganlarning salmoqli 16%ni tashkil etgan.

Xulosa qiladigan bo’lsak, aybdor tomonidan o’g’rilik sodir etayotganda, foydalanilgan asbob va vositalarning xususiyatlari uning usulini ham ancha miqdorda belgilaydi. Bundan tashqari jinoyat sodir etishda u yoki bu asbob, uskunalaridan foydalanilishi qilmishning ijtimoiy xavfliligini oshiradi. O’g’rilikning ob’ektiv belgilarini ko’rib chiqilishi nafaqat jazoning turini va miqdorini to’g’ri aniqlashda qo’l keladi, balki o’g’rilikni oldini olish uchun samarali choralarni ishlab chiqishda yordam beradi.